

ADABIY GERMENEVTIKA ASOSIDA ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATINI O'RGANISHNING METODIK IMKONIYATLARI

(5-sinf adabiyot darslari misolida)

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i4.023>

Muxtorova Lobar Zohir qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

*Magistratura bo'limi, o'zek tili va adabiyoti yo'nalishi
2-bosqich magistranti muxtorovalobar316@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'rlarini maktab adabiyot darslarida o'qitishda adabiy hermenevtika (matnni tushunish va talqin qilish sa'nati) usulidan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda shoirning "Tilla baliqcha" va "Burgut" she'rlari misolida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va matn ostidagi yashirin ma'nolarni anglash qobiliyatini qanday rivojlantirish mumkinligi tahlil qilingan. Hermenevtik yondashuv o'quvchilarni tayyor xulosalardan voz kechib, matnga ijodiy yondashishga o'rgatishi asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar: hermenevtika, talqin, Abdulla Oripov, subtekst, "Tilla baliqcha", "Burgut", tahlil mahorati, 5-sinf adabiyoti.

Kirish

Bugungi kunda maktablarda adabiyot darslarining asosiy vazifasi o'quvchiga faqat ma'lumot berish emas, balki unda badiiy tafakkurni shakllantirishdan iborat. Ko'p hollarda darslarda she'r mazmuni yuzaki tushuntiriladi, ba'zida tushuntirilmaydi ham, shunchaki yod olib kelish uy vazifasi qilib beriladi, bu esa bolaning matn ichidagi chuqur falsafani his qilishiga xalaqit beradi. Bolalar she'rni shunchaki yodlab olishadi va tez aytish aytgandek takrorlab yurishadi. She'r mazmuni haqida esa tasavvurlari bo'lmaydi.

Abdulla Oripov she'riyati o'zining ramziy obrazlari va falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Bu she'rlarni hermenevtik (talqin qilish) usulida o'rganish o'quvchiga muallif aytmoqchi bo'lgan sirli ma'nolarni topishga yordam beradi. Ushbu tadqiqotning maqsadi — 5-sinf o'quvchilariga Oripov she'rlarini yangicha usulda, ya'ni hermenevtik tahlil orqali o'rgatishning samarali yo'llarini ko'rsatib berishdir.

METODLAR

Dars jarayonida o'quvchilar bilan ishlashning quyidagi usullari qo'llaniladi:

- *"Savol va mulohaza"* usuli: O'quvchilarga matnning bevosita ma'nosidan tashqari, "Nima uchun aynan shu obraz tanlangan?" kabi mantiqiy savollar berildi. She'r mazmuniga mos bo'lgan ko'plab savollar o'qituvchi tomonidan beriladi va bu savollar orqali bolalar she'r mazmuniga qiziqish bildirishadi.

- *"Obrazlar xaritasi"*: She'rdagi asosiy timsollar (masalan, baliqcha, hovuz, cho'qqi) ajratib olinib, ularning ramziy ma'nolari ustida ishlanadi. Bunda o'qituvchi tomonidan she'r mazmuniga mos kelgan rasmlar keltiriladi va tasavvur uyg'otishga yordam beradi.
- *Qiyosiy tahlil*: Tajriba va nazorat guruhlari tashkil etilib, an'anaviy dars o'tilgan sinf bilan hermenevtik usul qo'llangan sinf natijalari solishtiriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'tkazilgan darslar natijasida o'quvchilarning matnni tushunish darajasi quyidagicha o'zgarishi kutiladi:

"Tilla baliqcha" tahlilida: O'quvchilar she'rni shunchaki hayvon haqidagi asar emas, balki "erkinlik va tutqinlik" haqidagi falsafiy asar sifatida qabul qildilar. Ular "loyqa hovuz"ni imkoniyatlar cheklangan muhit, "baliqcha"ni esa erkinlikka intiluvchi qalb sifatida talqin qilishadi.

"Burgut" she'ri tahlilida: Bolalar burgut timsolida faqat qushni emas, balki hayotda katta maqsadlar sari intiluvchi inson qiyofasini ko'ra olishadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hermenevtik yondashuv darsni quruq ma'ruzadan jonli muloqotga aylantiradi. Abdulla Oripov she'rlari juda ko'p ma'noli (polisemantik) bo'lgani uchun ham ushbu metod aynan shu muallif ijodini o'rganishda juda qo'l keladi.

Bu usul o'quvchilardada:

1. Matnni mantiqiy tahlil qilishni;
2. Muallifning hissiyotlarini tushunishni;
3. O'z fikrini dalillar bilan isbotlashni rivojlantiradi.

XULOSA

Abdulla Oripov she'riyatini hermenevtik usulda o'qitish 5-sinf o'quvchilari uchun juda samaralidir. Bu metod bolani tayyor qoliplardan chiqarib, uni mustaqil fikrlaydigan kitobxonga aylantiradi. Bu usuldan foydalanilgandan keyin o'quvchilar nafaqat Abdulla Oripov balki boshqa shoirlar she'rlarini ham shundayligicha yod olmasdan manosini tushunishga harakat qilishadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, adabiyot darslarida tahlilning bunday zamonaviy usullaridan foydalanish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oripov A. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012.
2. Yo'ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot: 5-sinf darsligi. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2024.
3. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.